

Yurt obodligi — mahalladan boshlanadi!

// 13.03.2026

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yurt-obodligi-mahalladan-boshlanadi>



Navro'z umumxalq bayrami yaqinlashar ekan, yurtimiz bo'ylab obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari yanada jadal tus olmoqda.

Ana shunday xayrli an'analar davomida "O'zkimyosanoat" AJda ham "Yurt obodligi, avvalo mahalladan boshlanadi!" shiori ostida umumxalq hashari o'tkazildi.

Tadbirda Jamiyat rahbariyati va xodimlari faol ishtirok etib, ish joylari atrofini obod qilishga o'z hissalarini qo'shdilar. Hashar davomida xizmat binolari hududi tartibga keltirilib, atrof-muhit tozalandi, daraxt va manzarali ko'chatlar parvarish qilindi.



Shu bilan birga, yashil maydonlarni kengaytirish va hududning ko'rkamligini oshirishga qaratilgan bir qator amaliy ishlar bajarildi.

Shuningdek, yo'laklar tozalanib, yashil hududlar obod holatga keltirildi. Bu kabi hasharlar nafaqat ish joylarini yanada ko'rkam qilishga xizmat qiladi, balki jamoada hamjihatlik va birdamlik muhitini mustahkamlaydi.

Navro'z arafasida tashkil etilayotgan bunday tadbirlar tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, pokiza muhitni asrash va milliy qadriyatlarga hurmat ruhini yanada kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

